ZAMONAVIY TA'LIM SHAROITIDA MAKTAB O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI.

Baxodirova Zaynabxon Jaxongir qizi
Andijon davlat chet tillari instituti 2-kurs Xorijiy filologiya va turizm fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish (ingiliz tili)
yo'nalishi 25_10 guruh talabasi:
https://doi.org/10.5281/zenodo.24163803

Annotatsiya: Ushbu maqola maktab o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning samarali usullari va zamonaviy metodlarini o'rganishga bag'ishlangan. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan davrda chet tillarini, xususan, ingliz tilini puxta o'zlashtirish muhim ta'limiy ehtiyojlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, o'quvchilarda til o'rganishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.

Tadqiqot jarayonida til o'rgatishda kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar, didaktik o'yinlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va motivatsion vositalarning samaradorligi tahlil qilindi. Shuningdek, yosh o'quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirishda o'qituvchining pedagogik mahorati, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, dars jarayonini optimallashtirish va o'quv faoliyatini individuallashtirishning amaliy jihatlari yoritildi.

Maqolada o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot metodikasi sifatida kuzatuv, so'rovnoma, tahlil va tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari ingliz tilini o'qitish jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash o'quvchilarning darsdagi faolligini, til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini hamda tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada ingliz tili o'qituvchilari uchun ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan.

Abstract: This article is devoted to the study of effective methods and modern approaches to teaching English to schoolchildren. In today's era of globalization and rapidly developing information technologies, mastering foreign languages, particularly English, has become an important educational necessity. In this regard, developing students' interest in language learning, improving their communicative competence, and enhancing their independent thinking skills are among the key priorities of modern education.

The study analyzes the effectiveness of the communicative approach, interactive methods, educational games, information and communication technologies, and motivational tools in language teaching. It also highlights the role of teachers' pedagogical skills in developing young learners' language competence, the application of modern educational technologies, the optimization of classroom activities, and the individualization of the learning process.

Particular attention is paid to organizing the educational process according to students' age characteristics, knowledge levels, and individual abilities. Observation, questionnaires, analysis, and experimental methods were used as research methods. The findings indicate that applying innovative approaches to English language teaching can improve students' classroom participation, motivation, and language skills, including listening, speaking, reading, and writing. Furthermore, the article provides

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

practical recommendations for English language teachers aimed at improving the quality and effectiveness of foreign language education.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению эффективных методов и современных подходов к обучению английскому языку школьников. В условиях глобализации и стремительного развития информационных технологий владение иностранными языками, в частности английским языком, становится одной из важных образовательных потребностей. В связи с этим развитие интереса учащихся к изучению языка, формирование коммуникативной компетенции и совершенствование навыков самостоятельного мышления являются актуальными задачами современного образования.

В ходе исследования проанализирована эффективность коммуникативного подхода, интерактивных методов, дидактических игр, информационно-коммуникационных технологий и мотивационных средств в обучении языку. Также рассмотрены роль педагогического мастерства учителя в развитии языковой компетенции учащихся, применение современных педагогических технологий, оптимизация учебного процесса и индивидуализация образовательной деятельности.

Особое внимание уделяется организации учебного процесса с учетом возрастных особенностей, уровня знаний и индивидуальных способностей школьников. В качестве методов исследования использовались наблюдение, анкетирование, анализ и экспериментальные методы. Результаты исследования показывают, что применение инновационных подходов в обучении английскому языку способствует повышению активности учащихся на уроках, развитию мотивации и совершенствованию навыков аудирования, говорения, чтения и письма. Кроме того, в статье представлены практические рекомендации для учителей английского языка, направленные на повышение качества и эффективности иноязычного образования.

Kalit so'zlar: ingliz tilini o'qitish, kommunikativ kompetensiya, interaktiv metodlar, innovatsion ta'lim, o'quv motivatsiyasi, pedagogik texnologiyalar, didaktik o'yinlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, individual ta'lim, til ko'nikmalari, maktab ta'limi.

Keywords: English language teaching, communicative competence, interactive methods, innovative education, student motivation, pedagogical technologies, educational games, information and communication technologies, individualized learning, language skills, school education.

Ключевые слова: преподавание английского языка, коммуникативная компетенция, интерактивные методы, инновационное образование, учебная мотивация, педагогические технологии, дидактические игры, информационно-коммуникационные технологии, индивидуальное обучение, языковые навыки, школьное образование.

Bugungi kunda ingliz tili xalqaro aloqada eng ko'p qo'llaniladigan tillardan biri hisoblanadi. Maktab yoshidagi o'quvchilar uchun ingliz tilini samarali o'rgatish ularning ta'lim sifatini oshirish, kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va global bilim olamiga kirish imkonini beradi. Shu sababli maktablarda til o'qitish jarayonida samarali metodlarni qo'llash dolzarb vazifa hisoblanadi. Ko'plab maktablarda ingliz tili darslarida o'quvchilarning faolligi yetarli darajada emas, va tilni amaliy qo'llash imkoniyatlari cheklangan. Shu bois, dars jarayonini interaktiv, qiziqarli va o'quvchilar darajasiga moslashtirish muhim

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola maktab o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishda samarali metod va usullarni aniqlash, ularning til o‘zlashtirish jarayoniga ta’sirini o‘rganish, hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga bag‘ishlangan.

Ingliz tilini o‘rganish maktab o‘quvchilari uchun juda muhimdir, chunki bu til nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki kelajakda kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantiradi. Maktablarda chet tilini o‘qitishning asosiy maqsadi – o‘quvchilarda til bilimini rivojlantirish, muloqot qilish qobiliyatini oshirish va tilga oid ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Ilmiy tadqiqotlar (Ismoiljon Abdumutallibovich Nishonov, 2021; S. Saidov va boshqalar, 2012) shuni ko‘rsatadiki, samarali metodlar va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash darslarning sifatini oshirish va o‘quvchilarning til o‘rganish samaradorligini kuchaytirishga yordam beradi. Shu bois, maktab o‘quvchilarga ingliz tilini o‘qitishda samarali usullarni aniqlash va amaliyotda qo‘llash dolzarb vazifa hisoblanadi.Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarga ingliz tilini o‘qitishning samarali usullari, darslarda qo‘llaniladigan metodlar va innovatsion texnologiyalar, shuningdek, o‘quv jarayonida tilga oid ko‘nikmalarni rivojlantirish yo‘llari tahlil qilinadi. O'quvchilarni ingliz tilini o'rgatishda turli metodikadan foydalanish mumkin, misol uchun : Yosh xususiyatlarini hisobga olish

Maktab o‘quvchilari, ayniqsa quyi sinflarda, tilni o‘yin va qiziqarli mashg‘ulotlar orqali tezroq o‘zlashtiradi. Shuning uchun dars jarayonida didaktik o‘yinlar, rasmli kartochkalar, qo‘shiqlar va qisqa dialoglardan foydalanish samarali natija beradi. Yuqori sinflarda esa muammoli vaziyatlar, munozara va loyiha ishlari ko‘proq qo‘llaniladi.

To‘rt ko‘nikmani uyg‘un rivojlantirish ya’ni ingliz tilini o‘qitishda tinglab tushunish (listening), o‘qish (reading), yozish (writing) va gapirish (speaking) ko‘nikmalari birgalikda rivojlantirilishi zarur. Faqat grammatika yoki test ishlash bilan cheklanib qolish o‘quvchining kommunikativ salohiyatini to‘liq shakllantirmaydi.

Differensial yondashuv -har bir o‘quvchining qobiliyati va tilni o‘zlashtirish darajasi turlicha bo‘ladi. Shu sababli kuchli o‘quvchilar uchun murakkabroq topshiriqlar, qiynalayotgan o‘quvchilar uchun esa soddaroq va ko‘maklashuvchi mashqlar berilishi maqsadga muvofiq.

Motivatsiyani oshirish-til o‘rganishda motivatsiya juda muhim omildir. O‘qituvchi darsni hayotiy misollar, chet el madaniyati, qiziqarli faktlar va zamonaviy mavzular bilan boyitsa, o‘quvchilarning qiziqishi ortadi. Rag‘batlantirish, ijobiy baholash va qo‘llab-quvvatlash ham muhim rol o‘ynaydi.

Baholashning zamonaviy usullari , an’anaviy yozma nazorat ishlari bilan bir qatorda og‘zaki suhbat, loyiha himoyasi, prezentatsiya va portfoliolar orqali baholash ham samarali hisoblanadi. Bu o‘quvchining real bilim va ko‘nikmalarini aniqlashga yordam beradi.

Ona tili bilan qiyosiy o‘rganish - ba’zi grammatik mavzularni tushuntirishda ona tili bilan qiyoslash usuli o‘quvchilarga mavzuni tezroq anglashga yordam beradi. Ammo dars jarayonida ingliz tilidan ko‘proq foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktab o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitish jarayoni zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim samaradorligi, avvalo, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar va innovatsion texnologiyalarni tizimli ravishda qo‘llash bilan belgilanadi. Shuningdek, o‘quvchilarning yosh, psixologik hamda individual xususiyatlarini inobatga olish ta’lim jarayonining natijadorligini oshiradi. Til ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirish, ya’ni tinglab tushunish, o‘qish, yozish va so‘zlash malakalarini o‘zaro uyg‘unlikda shakllantirish o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko‘nikmalarni muntazam ravishda rivojlantirish orqali o‘quvchilar ingliz tilidagi ma’lumotlarni to‘g‘ri anglash, o‘z fikrlarini erkin va ravon

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ifodalash, yozma nutqni shakllantirish hamda turli muloqot vaziyatlarida mustaqil ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, amaliy mashg'ulotlar, interaktiv topshiriqlar va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish til o'rganish jarayonining samaradorligini oshirib, o'quvchilarda mustahkam bilim va barqaror til ko'nikmalarini shakllantiradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Nishonov, I. A. (2021). Chet tilini o'qitishning zamonaviy metodikasi va samarali yondashuvlari. Ilmiy maqola.
2. Saidov, S., va boshqalar. (2012). Chet tillarni o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
3. Jalolov, J. J. (2012). Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.
4. Passov, E. I. (2000). Kommunikativ metod asoslari. Moskva.
5. Ziyo.uz

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.